



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart

Raqamlar


- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **5,5 trln. so'm**, o'sish **1,8 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **101,8 %**ni tashkil qildi.

shu jumladan

dehqonchilik mahsulotlari – **101,9 %**chorvachilik mahsulotlari – **101,8 %**


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5 521,1 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,8 %ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 5 443,2 mlrd.so'mni (101,8 %), o'rmon xo'jaligida – 27,9 mlrd.so'mni (100,9 %), baliq xo'jaligida – 50,0 mlrd.so'mni (105,1%) tashkil qildi. .

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi hududlar kesimida



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (103,8 %), Navoiy (103,2 %), Surxondaryo (102,4 %) va Farg'ona (102,2 %) viloyatlarida kuzatildi. Jizzax (100,7 %), Qahqadaryo (100,8 %), Sirdaryo va Xorazm (100,9 %) viloyatlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)larning umumiy hajmida hududlarning ulushi




Respublikaning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Toshkent viloyatining ulushi 16,9 %ni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari mos ravishda 13,6 % va 10,3 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,1 %), Sirdaryo (3,3 %) va Namangan (4,4 %) viloyatlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2017 yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,8 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 101,9 %ni, chorvachilik mahsulotlari – 101,8 %ni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining taqsimlanishi




Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 87,5 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,3 %i – fermer xo'jaliklariga, 6,2 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining xo'jaliklar toifalari ulushi bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-mart oylarida dehqonchilik mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi 1 289,8 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,9 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 24,0 foizni tashkil qildi.

Hosilni yig'ib olish. 2017 yilning yanvar – mart oylarida 56,0 ming tonna (102,2%) sabzavotlar yig'ib olindi.


Chorvachilik



2018 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 4 078,6 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,8 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 76,0 %ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 440,9 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-martiga nisbatan 1,5 %ga ko'p), 1 684,7 ming tonna sut (2,4 %ga), 1 236,8 mln.dona tuxum (2,5 %ga), 407,4 ming dona qorako'l teri (0,9 %ga kam) ishlab chiqarildi.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 93,6 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,4 %i, tuxumning 50,3 %i, junning 86,4 %i, qorako'l terining 91,7 %i ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlari hududlar kesimida


Go'sht (ming.t)




Sut (ming.t)



Tuxum (mln.dona)



Baliq (tonna)







Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 12 240,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 4 300,4 ming boshga, qo'y va echkilar – 20 427,8 ming boshga, parrandalar – 71 122,7 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 281,6 ming boshga (2,4 %ga), shu jumladan sigirlar – 34,9 ming boshga (0,8 %ga), qo'y va echkilar – 504,8 ming boshga (2,5 %ga), parrandalar – 4 274,1 ming boshga (6,4 %ga) ko'paydi.


Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh sonida xo'jalik toifalarining ulushi




-  Fermer xo'jaliklari
-  Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
-  Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2018 yining 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,9 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,3 %i fermer xo'jaliklariga, 84,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 12,5 %i fermer xo'jaliklariga, 63,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,1 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qoramollar va parrandalar bosh soni hududlar kesimida 2018 yil 1 aprel holatiga



Qo'y va echkilar (ming.bosh)



Parrandalar (ming.bosh)

